

## BAXMAL TUMANIDAGI YER RESURSLARIDAN FOYDALANISH DARAJASI

*Xasanova Nasiba Nazar qizi*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-bosqich magistri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Baxmal tumani tabiiy sharoiti va resurslari haqidagi ma'lumotlar, ulardan foydalanishning geografik asoslari tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar.** Baxmal tumani, tabiiy resurslar, tuproq, o'simlik, rekratsiya, turizm, relyef, hayvonot dunyosi.

**Abstract.** This article analyzes information about the natural conditions and resources of Bakhmal district, the geographical basis of their use.

**Keywords:** Bakhmal district, natural resources, soil, vegetation, recreation, tourism, relief, animal world.

**Аннотация.** В данной статье анализируются данные о природных условиях и ресурсах бархатного района, географические основы их использования.

**Ключевые слова.** Бархатный район, природные ресурсы, почва, растительность, отдых, туризм, местность, животные мир.

Baxmal tumani tog'li hudud hisoblangani sababli suv eroziyasi kuchli bo'lib, u yaylovlardan natog'ri foydalanish, tik yonbag'irlarini noto'g'ri haydash, o'simliklarga nisbatan noto'g'ri munosabatda bo'lish oqibatida sodir bo'lmoqda. Tuman hududida tuproqlarning asosiy qismi suv eroziyasiga uchragan. Tuproq – insoniyat xayoti uchun juda zarur bo'lgan resursdir. Chunki inson o'zi uchun zarur bo'lgan ozuqa maxsulotlarini tuproqdan oladi. Bu jihatdan qaraganda Baxmal tumani hududida ham tuproqlarning xilma xilligini ko'rishimiz mumkin. Hudud bo'ylab to'q tusli tuproqlar keng tarqalgan bo'lib, ushbu tuproqlarning chirindi miqdori 2,5 – 3,5 foizni, o'rtacha balandliklarda esa jigarrang tuproqlar keng tarqalgan bo'lib, chirindi miqdori 2,4 – 4,3 foizni tashkil etadi.

Baland tog` mintaqasi bo`ylab och qo`ng`ir tuproqlar tarqalgan va uning chirindi miqdori 2,4 -3,5 foizni tashkil qiladi. Tog` jigarrang tuproqlar ham uchraydi ular asosan hududning Molguzar tizmasidan ham baland va o`rtacha balandlikdagi, dengiz satxidan 1500 m va undan yuqoridagi hududlarni o`z ichiga oladi [41]. Baxmal tumanining umumiy yer fondi 186 437 gektar, shundan 106 434 gektari (57%) qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlar [66]. Tuman relyef tuzilishi 40 ancha murakkab bo`lgani uchun haydaladigan yerlar nisbatan kamroq (21,6%). Aksincha, yaylovlar va o`rmonlar esa ancha katta maydonni (62,4%) egallaydi. Tumanning yer fondi foydalanish xususiyatlariga ko`ra xilma-xil. Umumiy yer fondining 35 693 gektari (19,4%) dehqonchilikda (ekin yerlari sifatida) foydalaniladi. Ular sug`oriladigan (9,9%) va lalmi (90,1%) yerlardir. Qolgan hududlar asosan yaylovlar, bo`z yerlar, pichanzorlar va tog` o`rmonlaridan iborat. Baxmal tumani hududida aholi asosan sug`orma dehqonchilikdan foydalanadi. Sug`orma dehqonchilik – obikor dehqonchilik qishloq xo`jaligi ekinlarini sug`orib yetishtirish. Cho`l, chala cho`l va qurg`oqchil zonalarda , shuningdek vegetatsiya davrining ayrim bosqichlari nam bilan yetarli ta`minlanmagan hududlarda vujudga kelgan. Dehqonchilikning eng intensiv turlaridan biri. Sug`orma dehqonchilik ekinlaridan eng yuqori va barqaror hosil yetishtirishni ta`minlaydi, lalmikor dehqonchilikka nisbatan 8-10 marta ko`proq hosil beradi. Bunday sharoitlarda yerdan samarali foydalanish , takroriy va qo`shimcha ekinlar ekish mumkin. Tuman hududida ham sug`orma dehqonchilikdan bugungi kunda aholi tamonidan unumli foydalanilib kelinmoqda. Sug`orma dehqonchilik qilinadigan joylarda, yo`l bo`ylari, kanallar va ariq bo`ylarida pillachilikni rivojlantirish va ixota maqsadida tutzorlar barpo etilgan. O`tkazilgan daraxtlar shamol yo`lida himoya vositasi sifatida, hudud mikroiqlimini yumshatishda, yerlarning meliorativ xolatini yaxshilashga va sizot suvlarining pastroq tushishiga xizmat qiladi. Yer resurslaridan tabiiy yaylov sifatida foydalanishda tuman hududi yetakchilik qiladi. Tabiiy yaylovlar – chorva mollari uchun ozuqa bo`lgan o`simliklarning tabiiy qoplamiga ega yerlardir. Yaylovlar umummilliy boylik bo`lib, davlat tamonidan muhofaza qilinadi. Yaylovlar cho`ldagi, yarim cho`ldagi, tog` oldidagi

tog`dagi va tekislikdagi, suv bilan ta`minlangan hamda suv bilan taminlanmagan yaylovlarga ajratiladi. Tog`dagi yaylovlar mavsumiy bo`lib, ulardan yilning faqat muayyan vaqtda foydalaniladi. Baxmal tumani hududi ham tog` oldidagi tog`dagi va tekislik hududidagi tabiiy yaylovlar bugungi kunda hajmi tobora ortmoqda. Bunga sabab chorva mollari uchun eng arzon va qimmatli ko`k ozuqa manbaidir hamda tuyuq sonining keskin ortishi va yem hashakka talabning keskin ortishi desak mubolag`a bo`lmaydi.

Tumanda ko`p yillik daraxtzorlar maydoni qishloq xo`jaligida ishlatiladigan umumiy yer maydonining 6,9% (7364 ga) dan ortiq qismini egallaydi [66]. Buning katta qismini mevali bog`lar tashkil etib, umumiy ko`p yillik daraxtzorlarning 83,43% iga teng. Qolgan 7.2% i tokzorlarga, 8.67 % i tutzorlarga va 0.65% i ko`chatzorlarga to`g`ri keladi [70]. Tumanda qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlarning qolgan qismini bo`z yerlar va pichanzorlar tashkil qiladi. Ularga mos ravishda qishloq xo`jaligida ishlatiladigan umumiy yer maydonining 2,4 % va 0,23%i to`g`ri keladi. Baxmal tumani hududining qishloq xo`jaligida foydalaniladigan yerlardan qolganini o`rmonlar, tomorqa va boshqa yerlarga to`g`ri keladi. Tumandagi jami o`rmonlar 55676 gektarni tashkil etib, umumiy yer fondining 29,85 % ini tashkil qiladi. O`rmonlar Chumqor va Morguzar tog`larining asosan 1500-2600 m balandliklardagi `nbag`irlarini egallaydi. Tumanda tomorqa yerlar 7710 gektar bo`lib, umumiy yer fondining 4,1 % dan oshadi. Tomorqa yerlar aholining doimiy yashashi, hovli, uy-joy qurish bilan bog`liq yerlar bo`lib, aholi turar joylarining asosini tashkil qiladi. Yer fondining qolgan qismini qurilish ob`ektlari, yo`llar, dar`elar, kanallar, suv omborlari, qoyali `nbag`irlar va boshqalar tashkil etadi. Baxmal tumani o`simliklari chorvachilikni rivojlantiruvchi yaylov va yem-xashak, oziq-ovqat manbai. Tuman o`simliklarining 90% ga yaqini yem-xashak uchun yaroqli. Baxmal tumani hududida asosan shuvoqli- efemeroidlar, tipchoq bug`doyiq va shuvoq - bug`doyiq – efemerli formatsiyalar keng tarqalgan bo`lsada bodomzorlar mavjud. Mazkur hududning quyi qismida gulhayri, arslonquyruq, chayir, chalov, bug`doyiq, tog` yalpizi, shuvoq kabi o`simliklar uchraydi[37,38,41,42].

Bundan tashqari tuman hududida boshqoli - o`qli dashtlar va siyrak o`rmonlar o`sadi. Shimoliy - g`arbiy o`rtacha baland tog` hududlarida betaga dashtlari bilan band bo`lib, eng baland qismlari asosan archazorlar mavjud bo`lib ular tagida har xil o`tlar va butalar uchraydi. Boshqa daraxtlardan bodom, yong`oq, tut, zarang, do`lana, yovvoyi olma, tog` ochasi ham keng tarqalgan. Butalardan namatak, zirk, irg`ay, dorivor o`simliklardan tog` piyozi, kiyiko`t, rovoch, toron kabilarni uchratishimiz mumkin. Sangzor daryosi havzasining adir va o`rtacha balanddagi tog` qismidagi daryo terrasasi va qayirlarida zich kuchalali tol , qamishli - tolzor, aralasho`qli-tolzor, boshqo`qli-tolzor, tuyasingirenli-tolzor, chakanda va Zarafshon archasi bilan, aralash o`qli – chakandali tozlorlarni ko`rishimiz mumkin [30]. Sangzor daryosining quyi terassalari va qayirlari o`toq-qayir–allyuval tuproqlari bilan band. Ularning shakllanish sharoyiti bo`ylab sizot suvlarining doyimiy yoki vaqti-vaqti bilan 1-2,5 m chuqurlikda joylashganligidir. Sangzor vodiysi bo`ylab yaproqli va ignabargli o`rmonlar joylashgan, ular tog` yonbag`irlarini nurash jarayonidan himoya qilish bilan birga daryo vodiysining yemirilib ketishi oldini oladi. Hozirgi kunda tuman hududining ayrim joylarida qurulishbop material hisoblangan terak daraxtini ko`paytirishga ham alohida etibor berilmoqda. Tumandagi jami o`rmonlar 55676 gektarni tashkil etib, umumiy yer fondining 29,85 % ini tashkil qiladi. O`rmonlar Chumqor va Morguzar tog`larining asosan 1500-2600 m balandliklardagi ènbag`irlarini egallaydi. Tumanda tomorqa yerlar 7710 gektar bo`lib, umumiy yer fondining 4,1 % dan oshadi. Tomorqa yerlar aholining doimiy yashashi, hovli, uy-joy qurish bilan bog`liq yerlar bo`lib, aholi turar joylarining asosini tashkil qiladi. Tumandagi qishloq va shaharchalar dengiz sathidan 1000-1100 m bo`lgan tog` etaklaridagi konus èyilmalarida, buloqlar atroflarida hamda Sangzor darèsi terrasalarida joylashgan. Tuman o`simliklarining 90% ga yaqini yem-xashak uchun yaroqli. Yer fondining qolgan qismini qurilish ob`ektlari, yo`llar, darèlar, kanallar, suv omborlari, qoyali ènbag`irlar va boshqalar tashkil etadi. Baxmal tumani o`simliklari chorvachilikni rivojlantiruvchi yaylov va yem-xashak, oziq-ovqat manbai hisoblanadi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Алибеков Л.А., Нишонов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. – Ташкент: Узбекистан, 1978. – 255 с.
2. Алибеков Л.А. Зомин миллий боғи ва геоэкологик муаммолар ечимининг географик асослари. Т.: Фан ва технология, 2013. -132 б.
3. Алимкулов Н.Р. Жиззах вилояти ландшафт-экологик шароитини баҳолаш // Г.ф.н. илм. дар. олиш учун тақдим эт. дисс. авт. – Тошкент: 2009. –Б 24.
4. Алимкулов Н.Р., Холмуродов Ш.А. Сангзор водийсининг географик туристик объектлари ва муҳофаза қилиш муаммолари // Ўзбекистонда атроф-муҳитни муҳофаза қилишнинг долзарб масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Самарқанд, 2013. 28-29-б.
5. Анорбоев М.Т. Ойқорнинг оқ тонглари. - Сангзор: Жиззах, 2000.- 64 б.
6. Бабушкин Л.Н., Когай Н.А., Закиров Ш.С. Агроклиматические условия сельского хозяйства Узбекистана. – Ташкент: Мехнат, 1985.
7. Баратов П. Ўзбекистон табиий географияси. -Т.: Ўқитувчи, 1996. 246 б.